

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT KENGASHINI QO'LLAB-QUVVATLASH
TO'G'RISIDA**

Mamlakat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish jarayonida aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirib borishda yuksak ma'naviyat va ma'rifatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur egallagan, demokratik tamoyillar hamda fuqarolik jamiyati asoslarini har tomonlama o'zlashtirgan, shaxsiy va umummiliy manfaatlarni o'zaro uyg'un ko'ra oladigan erkin shaxs va ongi avlod tarbiyasining o'ta muhimligini hisobga olib hamda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosi, ustuvor yo'nalishi ekanligini ta'kidlagan holda:

1. "Ma'rifatchilar", "Faylasuflar", "Tarixchilar" jamiyatlari, "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Kamolot", "Nuroniy", "Navro'z", "Oltin meros", Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va demokratlashtirish jamg'armalari, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, Yozuvchilar, Bastakorlar, "Tasviriy oyina" uyushmalari, Badiiy akademiya, Xotin-qizlar qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus, Xalq ta'limi, Madaniyat ishlari vazirliklari kabi maqsad va vazifalari ma'rifiy-ma'naviy tarbiya, targ'ibot bilan bog'liq qator davlat va nodavlat tashkilotlarining Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashini ta'sis etganliklari qo'llab-quvvatlansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tashkil etilgani inobatga olinsin.

2. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining ta'sis konferensiyasida Kengashning faoliyat dasturi, Nizomi va tashkiliy tizimi ([1](#), [2](#), [3-ilovalar](#)) tasdiqlangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasiga tayangan holda Kengashga a'zo tashkilotlarning ma'rifiy targ'ibot yo'nalishidagi imkon va salohiyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirish va zamonaviy talablar asosida tashkil etishda quyidagilarni o'zining birlamchi maqsad va vazifalari etib belgilagani ma'qullansin:

mamlakat ahli, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va tafakkurida milliy g'oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

jamoatchilimiz ongiga istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oliyanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhini yanada chuqr singdirish;

milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, g'oyalari yosh avlod qalbidan joy olishiga ko'maklashish;

har bir fuqaroda o'z haq-huquqi, imkoniyati va irodasiga tayanish, o'z taqdirining bunyodkori bo'lish, mamlakatda kechayotgan yangilanishlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning ma'no-mohiyati, maqsadini teran anglagan tarzda uning faol ishtirokchisi va kurashchisiga aylanish tafakkurini kamol toptirish;

ma'rifiy targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligi va muntazamligini, xalqchil va haqqoniylukka, jamoatchilik fikri va kuchiga, barcha sohalardagi sog'lom fikrlovchi fuqarolar salohiyati va harakatiga asoslanishini ta'minlash.

4. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashiga O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri o'rinosari, Kengashning joylardagi bo'limlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyat, shahar, tuman hokimlari rahbarlikka saylanganliklari inobatga olinsin.

5. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi qarorlarini joylarda amalga oshirish va targ'ibot-tashviqot tadbirlarini uyushtiruvchi tashkiliy guruhga aylantirilgani, "Oltin meros jamg'armasi", "Ma'naviyat" nashriyoti, "Tafakkur" va "Jahon adabiyoti" jurnallari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi huzuridagi tashkilotlar

sifatida tasdiqlanganidan kelib chiqqan holda mazkur tashkilotlarning nizom hamda me'yoriy hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi tavsiya etilsin.

6. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining hamda uning tarkibidagi "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining joylardagi bo'limlari tegishli hudud hokimliklari binosida joylashtirilishi belgilab qo'yilsin.

7. Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda mazkur Farmonni amalga oshirish yuzasidan tegishli qaror tayyorlasin.

8. Ushbu Farmonni amalga oshirishni nazorat qilish Prezidentning Davlat maslahatchilari T. Alimov va A. Ziyo zimmasiga yuklatilsin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1999-yil 3-sentabr,
PF-2385-son

1-ILOVA

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT KENGASHINING FAOLIYAT

DASTURI

Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsad — ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Islom KARIMOV

Yigirmanchi asr oxiriga kelib jahon maydonida ma'naviy salohiyat, aql-zakovat musobaqasi, mafkuraviy kurash yetakchi o'ringa chiqdi. Butun dunyoda insonlarning qalbi va ongiga hukmron bo'lish uchun keskin kurash bormoqda. Tabiiyki, hech qaysi davlat, hech qaysi jamiyat bu jarayondan chetda turolmaydi.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirdiki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Endi qurol-yarog' bilan emas, balki "fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya" bilangina kurashib, olg'a borish mumkin. Bugun kimning mafkurasi, ma'naviyati, milliy g'oyasi qudratli bo'lsa, o'sha engib chiqadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, bir mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda.

Shu ma'noda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, "mafcura poligonlari yadro poligonlaridan kuchlidir".

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiatidan munosib o'rin egallagach, biz murakkab dunyo bilan ko'ptomonlama munosabatlар o'rnatishga kirishdik. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlik aloqalari keng yo'lga qo'yildi. Ayni vaqtda mamlakatimizga turli yo'llar bilan har xil mafkuraviy, g'oyaviy libosdagi axborot oqimlari kirib kelmoqda, xilma-xil diniy mazhablar, sektalar faoliyat yuritib, o'z ta'sir doiralarini kengaytirishga, jamiyatning shimoiy-siyosiy muvozanatini buzish, ma'naviy beqarorlikni vujudga keltirish orqali o'z maqsadlariga erishishga intilmoqda. Kommunistik mafcura tarafдорлари ham hali quollarini butkul tashlagani yo'q. Shuningdek, yon-atrofimizda shovinistik qarashlar, bizga imperiya ko'zi bilan qarash kayfiyatları, mintaqada hukmronlik va zo'ravonlik qilish da'volari ham mavjud. Ekstremizm, diniy aqidaparastlik harakatlari, uning vahhobiychilik, "Hizbi tahrir", "Musulmon birodarlar" kabi turli ko'rinishdagi zararli to'dalari mamlakatimizning xavfsizligiga, xalqimizning tinchligi, totuvligiga, kelajakka bo'lgan ezgu ishonchiga tajovuz qilishga urinmoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatda har birimizdan, butun xalqimizdan ruhan uyg'oq va sergak bo'lish, davr zimmamizga yuklagan mas'uliyatni teran his qilish, millatimiz, xalqimiz, Vatanimiz ozodligi va baxtu saodati yo'lida fidokorona kurashish talab etilmoqda.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi (bundan buyon Kengash deb yuritiladi) ana shunday ijtimoiy-siyosiy zarurat talabidan kelib chiqqan holda xalqimizning o'zi tanlagan taraqqiyot

yo‘lidan og‘ishmay olg‘a borishiga erishish, , uni bizning milliy manfaatlarimizga zid bo‘lgan turli xil yot va buzg‘unchi mafkuraviy tazyiq va tahdidlardan himoya qilish maqsadida tashkil etilmoqda.

KENGASHNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

Kengashning asosiy vazifasi jamoatchiligidan ongiga istiqlol g‘oyalarini yanada chuqur singdirish, uning mustaqil tafakkurini yuksaltirishga ko‘maklashish, ayniqsa, o‘sib’ kelayotgan yosh avlod qalbida milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Buning uchun Kengash ularni demokratik tamoyillar, inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug‘lash ruhida tarbiyalash, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, tafakkuri teran fuqarolarni kamol toptirishga qaratilgan keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy tarbiya dasturini amalgga oshiradi.

Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun Kengash respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan tegishli davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlarining Nizom va Dasturlarida ko‘zda tutilgan, aholining turli qatlamlari, toifalari va tabaqalari manfaatlarini mujassamlashtirgan holda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini amalgga oshiradi.

Kengash mamlakat ahlini istiqlol g‘oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug‘ va oljanob maqsadga e’tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga mo‘ljallangan targ‘ibot-tashviqot ishlarining strategiyasini belgilaydi, harakat uslublarini ishlab chiqadi va ularni hayotga tatbiq etishga ko‘maklashadi.

Kengash barcha ta‘lim-tarbiya muassasalarini, aholi turar joylari, ishlab chiqarish sohalarida ma’naviy-ruhiy muhitni, shaxsnинг kayfiyatini, intilishi va muddaolarini o‘rganadi, ularni hisobga olgan holda ijobjiy an’ana va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi, mavjud muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy muhitga ta’sirini tahlil qiladi, bartaraf qilish choralarini tavsiya etadi.

Kengash ma’rifiy-targ‘ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg‘unligini, muntazamligini ta‘minlaydi, ya’ni ma’ruza, suhbat va bahs-munozaralar, seminarlar, konferensiylar o‘tkazish, ommaviy axborot vositalarida chiqish yo‘li bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirishga rahbarlik qiladi.

Kengash o‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkirlari qutlug‘ merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo‘lishiga, ularning mana shunday ma’naviy muhitda kamol topishiga, islam dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g‘oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratadi. Jamoatchilik orasida targ‘ibot ishlarini dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imam Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta‘limoti, Termiziy o‘gitlari, Yassaviy hikmatlari singari madaniy merosimiz asosida olib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, ta’sirchan va tushunarli tarzda yetkazish uchun el-yurt orasida obro‘-e’tibor qozongan, yuksak saviyali, ko‘pni ko‘rgan, jonkuyar, otashin, eng muhimmi, haqqoniy so‘zi, yorqin fikri bilan odamlar qalbiga yo‘l topa oladigan fidoyi insonlarga tayanadi va ular orqali ish olib boradi.

Jamoatchilikning, peshqadam ziyorilarning tajribasi, bilimi, salohiyatiga tayangan holda jamiyat har bir a’zosining sog‘lom fikrli bo‘lib kamol topishiga sharoit yaratish, yurt tinchligi, el saodatiga xizmat qiladigan intilish, izlanish va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va keng yoyish yo‘li bilan kuchli davlatdan kuchli jamiyat yaratish tamoyilini ro‘yobga chiqarish bosh vazifalardan biridir.

KENGASH FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

1. Fuqarolarning ma’naviy barkamolligiga erishish.

Buning uchun Kengash aholining ma’rifiy saviyasini, siyosiy, huquqiy, madaniy, ekologik savodxonligini o‘stirishga qaratilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bunda o‘zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, falsafiy, madaniy va axloqiy merosiga, buyuk qadriyatlariga, milliy o‘zligini anglash orqali yuksalish yo‘lini bosib o‘tgan ilg‘or davlatlarning tajribasiga asoslanadi.

Daxldor vazirliklar, tashkilot va muassasalar, ijodiy uyushmalar, “Ma’rifatchilar”, “Faylasuflar”, “Tarixchilar” kabi qator jamiyatlar, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, “Mahalla”,

“Sog‘lom avlod uchun”, “Kamolot”, “Umid”, “Ustoz”, “Ekosan”, Amir Temur, Imom Buxoriy, “Oltin meros” va boshqa jamg‘armalar vakillarini targ‘ibot ishlariiga jalg etib, ularning bilim va tajribalaridan samarali foydalanadi.

Kengash buyuk ajdodlarimizning o‘gitlari, o‘tmish saboqlari, mustaqillik davrida erishilgan zafarlar tahlili asosida jamiyatning har bir a’zosi qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish va kamol toptirishga xizmat qiladi.

Bu boradagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

— har bir xonadonda kattalarga izzat-ehtirom, kichiklarga shafqat va e’tibor barqaror bo‘lgan sog‘lom ma’naviy muhit yaratilishiga, o‘zaro mehr-oqibat jamiyatning ommaviy va ezgu fazilatiga aylanishiga, xalqimizni milliy mafkura asosida birlashtirishga ko‘maklashish;

— “Sog‘lom ona — sog‘lom bola”, “Sog‘lom bola — sog‘lom kelajak” tushunchasini har bir oila, ota-onaning, yigit va qizlarning qalbiga singdirish orqali yalpi oilaviy farovonlikka erishish;

— tarbiyaning “oila - bog‘cha - maktab - litsey-kollej - oliy o‘quv yurti - mahalla - jamiyat” tizimini vujudga keltirish.

2. Milliy va dunyoviy tafakkurni uyg‘unlashtirish yo‘lida

— jahon fani, madaniyati, ma’rifiy mamlakatlarning tajribasini targ‘ib etish, jamiyatda ilg‘or andozalarga intilishni rag‘batlantirish orqali milliy fan va madaniyatning zamonaviy taraqqiyot darajasiga ko‘tarilishiga yordamlashish;

— xorijiy mamlakatlar hayotida ro‘y berayotgan ijobiy va salbiy hodisalarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarni loqayd tomoshabindan faol mushohada yurituvchi, voqelikni teran idrok etuvchi ongli insonga aylantirish uchun ko‘maklashish;

— O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosatda erishayotgan yutuqlarini, bu yutuqlarning bugun va kelajak uchun ahamiyatini anglatish orqali milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash.

3. Faol fuqarolik munosabatini rivojlantirish maqsadida:

— barcha ijtimoiy guruuhlar va tabaqalarning huquqiy ongini yuksaltirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash, ayni paytda o‘zining fuqarolik huquqi va burchini chuqur anglagan holda yashashi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ko‘maklashish;

— ijtimoiyadolat mezonlarining har qanday shaklda tuzilishiga, o‘tmishdan meros illatlar - poraxo‘rlik, oshna-og‘aynigarchilik, urug‘-aymoqchilik, mansabparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, axloqsizlikka, qonunbuzarlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi jamoatchilikning keskin va murosasiz munosabatini shakllantirish;

— jamiyatda diniy mutaassiblik va aqidaparastlikning barcha ko‘rinishlariga, yurtning tinchligi, osoyishtaligiga raxna soladigan, vatandoshlarimizning imon-e’tiqodi va ishonchiga putur yetkazadigan har qanday g‘oyalar, nazariyalar va tushunchalarga nisbatan murosasiz kurash muhitini shakllantirish;

— mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning o‘ziga xos jihatlari va mushtarak maqsadlarini hisobga olgan holda fuqarolararo o‘zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;

— fikrlar xilma-xilligi zaminida paydo bo‘lgan ilg‘or ijtimoiy fikrlar, tashabbuslarni ommalashtirish;

— xalqning tarixiy an‘analari, xususiyatlari, milliy ong va turmush tarzining hayotiy tamoyillariga asoslangan holda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, jamoatchilikning ta’sir kuchini jamiyat axloqiy-ma’naviy hayotining mezoniga aylantirish;

ekologik tarbiyani ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy tarbiyaning uzviy va uyg‘un tarkibiy darajasiga ko‘tarish.

KENGASH FAOLIYATINING TASHKILIY JIHATLARI

Kengash o‘z faoliyatining samaradorligiga erishish uchun quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshiradi:

Mavjud vaziyatni, yaqin istiqbolimizning rivojlanish tamoyillarini, undagi salbiy holatlarning ijtimoiy sabablarini xolis o‘rganadigan nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishga ko‘maklashadi va ularning imkoniyatidan foydalanadi. Bu tashkilotlarning har

qanday manfaatdan yoki ta'sirdan xoli bo'lib, real hayot haqida, muayyan ijtimoiy hodisa va voqealarni keltirib chiqaradigan omillar haqida achchiq bo'lsa-da, xolisona, haqqoniy xulosalar berishini tashkil qiladi. Kengash mazkur xulosalar asosida jamiyatni eski asoratlardan xalos etish, dunyoqarashimiz, ma'naviyatimiz va mafkuramizni yuksak bosqichga ko'tarish yo'llarini ishlab chiqadi va amaliy takliflar tavsiya etadi.

Kengashning asosiy maqsadi — "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasiga tayangan holda o'zbek xalqining ongini va qalbini mustabid o'tmish asoratlari — ma'naviy mutelik va qo'rquv, mustaqil fiksizlik, ko'r-ko'rona sajdabozlik, g'oyaviy muvozanatsizlik singari illatlardan forig' etish, hur tafakkur va erkin turmush tarziga xos ko'nikmalar bilan quvvatlantirish, ayni paytda ozodligimiz, taraqqiyotimizga tahdid soluvchi tashqi va ichki g'anmlarning turli niqobdag'i g'arazli niyatlaridan o'z vaqtida ogohlantirib va muhofaza etib, milliy istiqlol g'oyalarini, mustaqillik mafkurasini umummillat mafkurasiga — g'oyaviy, ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish, har bir fuqaroda o'z irodasiga, xalqining kuch -qudratiga, Vatanining yorqin kelajagiga komil ishonch, sobit imon tuyg'usini kamol toptirishdan iborat.

Viloyat va tumanlarda bevosita hokimlar rahbarligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining bo'limlari tashkil etiladi va Nizomda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatadi.

Kengash va uning bo'limlari o'quv muassasalarida, qishloq va mahallalarda, mehnat jamoalarida, harbiy qismlarda keng ko'lamli, ko'p qirrali, aholining barcha tabaqalari va toifalarining ma'naviy ehtiyojiga mos keladigan, jahon va mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotiga oid dolzarb savollariga javob beradigan targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi, ish uslubini zamon talablariga binoan takomillashtirib boradi.

Kengash muktablar, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, mehnat jamoalarida, aholi turar joylarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutasaddi mutaxassislarining ma'naviy saviyasi va bilimini oshirishga ko'maklashadi.

Barcha o'quv muassasalarida tahsil olayotgan, ishlab chiqarishning turli sohalarida ishlayotgan yosh avlodning ongini yuksaltirish, ularni ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirdilar bilan band qiladigan turli tashkilot va to'garaklar tuzishda amaliy yordam beradi. Bu tashkilot va to'garaklar o'g'il-qizlarimizni o'zligini anglashga, mustaqil, ongli fikrlashga o'rgatishi, ularning tafakkurida bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun xizmat qiladi.

Mustaqillik har bir odam, har qaysi oila, yurtimiz uchun, kelajagimiz uchun nima berdi va nima beradi, degan masalani oddiy hayotiy misollar asosida kishilar ongiga yetkazish, ongiga singdirish orqali ularning dunyoqarashini o'zgartirish, uni ozod, o'z haq-huquqini yaxshi biladigan, boqimandalikni o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashga ko'maklashish — Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi faoliyatidan ko'zlangan pirovard maqsad ana shundan iborat.

Kelgusi nasllarga bizdan ozod va obod Vatan qolishini, shu aziz diyorda nafaqat farzandlarimiz, balki nevara-chevaralarimiz, kelgusi avlodlarimiz ham tinch-omon, farovon, baxtli-saodatli, ma'rifiy hayot kechirishini, O'zbekiston degan yurt, o'zbek degan nom dunyo turgunicha turishini istar ekanmiz, uni barcha jabhalarda, jumladan, mafkuraviy kurash sohasida ham himoya qilish, yomon ko'zlardan, g'arazli niyatlardan, balo-qazolardan asrab-avaylash — har birimizning muqaddas fuqarolik burchimizdir.

2-ILOVA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

— Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi (bundan buyon Kengash) jamiyatimiz a'zolari, ayniqsa, yoshlar o'rtasida milliy g'oya va milliy mafkuraga tayangan holda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish orqali inson huquqlari va qadr-qimmatini. ulug'lashga, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, dunyoqarashi teran va

mustaqil fikrlovchi fuqarolarni kamol toptirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli, keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy tarbiya dasturini amalga oshiradi.

— Kengash muassislari mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan Nizom va Dasturlarida aholining turli qatlamlari, toifalari va tabaqalarining manfaatlarini mujassamlashtirgan, ma'rifiy-ma'naviy tarbiya, targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishni o'zlariga asosiy vazifalardan biri qilib belgilagan davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlaridir.

— Kengash O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va ushbu Nizomga binoan faoliyat ko'rsatadi.

II. Kengashning maqsad va vazifalari

Kengashning asosiy maqsadi — “Jaholatga qarshi ma'rifikat” g‘oyasiga tayangan holda o‘zbek xalqining ongini va qalbini mustabid o‘tmish asoratlari — ma'naviy mutelik va qo'rquv, mustaqil fiksizlik, ko'r-ko'rona sajdabozlik, g‘oyaviy muvozanatsizlik singari illatlardan forig‘ etish, hur tafakkur va erkin turmush tarziga xos ko'nikmalar bilan quvvatlantirish, ayni paytda ozodligimiz, taraqqiyotimizga tahdid soluvchi tashqi va ichki g‘animlarning turli niqobdagagi g‘arazli niyatlaridan o‘z vaqtida ogohlantirib va muhofaza etib, har bir fuqaroda o‘z irodasiga, xalqining kuch-qudratiga, Vatanining yorqin kelajagiga komil ishonch, sobit imon tuyg‘usini kamol toptirishdan iborat.

Keng jamoatchilikning, peshqadam ziyolilarning tajribasi, bilimi, salohiyatiga tayangan holda jamiyatning har bir a'zosining yurt tinchligi, el saodatiga xizmat qiladigan intilish, izlanish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali kuchli davlatdan kuchli jamiyat yaratish tamoyilini muntazam targ'ib va tashviq etishni uyushtirish, ro'yobga chiqarish Kengashning bosh vazifasidir.

Kengash o‘z faoliyatining samaradorligiga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

— mamlakat ahlini istiqlol g‘oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug‘ va olijanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga mo'ljallangan targ'ibot-tashviqot ishlarining strategiyasini belgilash, harakat uslublarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— barcha ta'lif-tarbiya muassasalari, aholi turar joylari, ishlab chiqarish sohalarida ma'naviy-ruhiy muhitning ahvolini, ommaning kayfiyatini, intilishi va muddaolarini hisobga olgan holda ijobjiy an'ana va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy muhitga ta'sirini tahlil qilish, bartaraf etish choralarini hayotga tatbiq etish;

— ma'rifiy-targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligini, muntazamligini, haqqoniylar asoslanishini ta'minlash, ya'ni, ma'ruza, suhbat, bahs-munozaralar, seminarlar va konferensiylar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirot etish yo'li bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirishga rahbarlik qilish;

— o'zbek xalqining ulug‘ mutafakkirlari qutlug‘ merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham muntazam va to'laqonli bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga, islam dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g‘oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratish;

— milliy mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniylar tuzunlarini yetkazish uchun el-yurt orasida obro'-e'tibor qozongan, yuksak saviyali, ko'pni ko'rgan, jonkuyar, otashin, eng muhimi haqqoniy so'zi, yorqin fikri bilan odamlar qalbi va ongiga yo'l topa oladigan fidoyi insonlarni safarbar etish.

— mavjud vaziyatni, yaqin istiqbolimizning rivojlanish tamoyillarini, undagi salbiy holatlarning ijtimoiy sabablarini xolis o'rganadigan nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashish va ularning imkoniyatlaridan foydalanish.

III. Kengash faoliyatining asosiy yo'naliishlari

1. Fuqarolarning ma'naviy barkamolligiga erishish maqsadida:

— o‘zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, falsafiy, madaniy va axloqiy merosiga, milliy o‘zligini tanish orqali yuksalish yo‘lini bosib o‘tgan peshqadam davlatlarning tajribasiga tayangan holda milliy istiqlol g‘oyalarini ommaning ongi va qalbiga teran singdirish, mustaqillik mafkurasini umummillat mafkurasiga — g‘oyaviy, ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;

— mamlakat ahlining ayniqsa, yosh avlodning dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatini shakllantirish, faol fuqarolik va fidoyi vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish;

— mamlakat ozodligini himoya etish, bosqinchilarga qarshi kurashdagi buyuk ajdodlarning ibrati, o‘tmish saboqlari, mustaqillik davrida erishilgan zafarlar tahlili asosida jamiyatning har bir a’zosi qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish va tarbiyalash;

— har bir xonadonda kattalarga izzat-ehtirom, kichiklarga shafqat va e’tibor ustuvor bo‘lgan sog‘lom ma’naviy muhit yaratilishiga, o‘zaro mehr-oqibat jamiyatning ommaviy va ezgu fazilatiga aylanishiga ko‘maklashish;

— “Sog‘lom ona - sog‘lom bola”, “Sog‘lom bola — sog‘lom kelajak” tushunchasini har bir oila, ota-onaning, yigit va qizlarning qalbiga singdirish orqali yalpi oilaviy farovonlikka erishish;

— Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlarni, Milliy dasturning har bir fuqaro, oila taqdiri, kelajagi bilan chambarchas bog‘liqligini keng targ‘ib etish, uning amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minalash, erishilgan yutuqlarni ommaga yetkazish;

- tarbiyaning “oila-bog‘cha-maktab-litsey-kollej-oliy o‘quv yurti-mahalla-jamiyat” tizimining to‘laqonli va muntazam faoliyat ko‘rsatishiga erishish.

2. Milliy va dunyoviy tafakkurni uyg‘unlashtirish yo‘lida:

— jahon fani, madaniyati, ma’rifiy mamlakatlarning tajribasini targ‘ib etish, jamiyatda ilg‘or andozalarga intilishni rag‘batlantirish orqali milliy fan va madaniyatining zamonaviy taraqqiyot cho‘qquisiga ko‘tarishga yordamlashish;

xorijiy mamlakatlarning hayotida ro‘y berayotgan hodisalarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarning loqayd tomoshabindan faol mushohada va teran idrok etuvchi zamon va makon farzandiga aylanishiga imkon yaratish;

— O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosatda erishayotgan yutuqlarini, bu yutuqlarning bugun va kelajak uchun ahamiyatini anglatish orqali milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash.

3. Faol fuqarolik munosabatini rivojlantirishda:

— barcha ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning huquqiy ongini yuksaltirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash, ayni paytda o‘zining fuqarolik huquqi va burchini chuqur anglagan holda yashashi, jamiyat hayotida faol ishtiroy etishi va ishlashiga ko‘maklashish;

— ijtimoiyadolat mezonlarining har qanday shaklda buzilishiga, o‘tmishdan meros illatlar — poraxo‘rlik, oshna-og‘aynigarchilik, urug‘chilik, mansabparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, axloqsizlikka, qonunbuzarliklarning barcha ko‘rinishlariga qarshi jamoatchilikning keskin va murosasiz munosabatini shakllantirish;

— jamiyatda diniy mutaassiblik va aqidaparastlikning barcha ko‘rinishlariga, yurting tinchligi, osoyishtaligiga raxna soladigan, vatandoshlarimizning imon-e’tiqodi va ishonchiga putur yetkazadigan har qanday g‘oyalar, nazariyalar va tushunchalarga nisbatan ayovsiz kurashchanlik ruhi va vaziyatini yaratish;

— mamlakatda yashayotgan barcha millatlarning o‘ziga xos jihatlari va mushtarak maqsadlarini hisobga olgan holda millatlararo o‘zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;

— fikrlar xilma-xilligi zaminida paydo bo‘lgan ilg‘or ijtimoiy fikrlar, tashabbuslarni ommalashtirish;

— xalqning tarixiy an’analari, xususiyatlari, milliy ong va turmush tarzining hayotiy tamoyillariga asoslangan holda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, jamoatchilikning ta’sir kuchini jamiyat axloqiy-ma’naviy hayotining mezoniga aylantirish;

— ekologik tarbiyani ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy tarbiyaning uzviy va uyg‘un tarkibiy qismi darajasiga ko‘tarish.

IV. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining huquqlari

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi Oliy va o’rta maxsus ta’limi, Xalq ta’lim, Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklariga qarashli barcha o’quv muassasalarida, harbiy qismlarda, huquqni muhofaza etuvchi idoralarda, qishloqlar va mahallalar, korxonalar, xo‘jaliklar, barcha turdagи davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlarida olib boriladigan ma’rifiy-targ’ibot ishlarining yo‘nalishlarini belgilaydi, muvofiqlashtiradi.

V. Kengashning tuzilishi

1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi ma’naviy, ma’rifiy, tarbiyaviy yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatadigan davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlari muassisligida viloyatlar, shahar va tumanlar konferensiyalarida saylangan vakillarning Respublika konferensiyasida ochiq ovoz berish yo‘li bilan tuziladi.

2. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi tarkibiga Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazi, Milliy mafkura ilmiy-targ’ibot Markazi kiradi va bevosita Kengash rahbarligida ishlaydi. Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining rahbari Kengashning mas’ul kotibi hisoblanadi.

3. “Ma’naviyat” nashriyoti, “Oltin meros” jamg‘armasi, “Tafakkur” va “Jahon adabiyoti” jurnallari tahririyati Respublika Kengashi qoshidagi tashkilotlardir.”

4. Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazi Kengash qarorlarini joylarda amalga oshiradigan va targ’ibot-tashviqot tadbirlarini uyushtiradigan tashkiliy guruh bo‘lib, quyidagi beshta bo‘limdan iborat tarkibda faoliyat ko‘rsatadi:

- targ’ibotchilarni muvofiqlashtirish tashkiliy bo‘limi;
- ma’naviy-ma’rifiy targ’ibot bo‘limi;
- ijtimoiy-iqtisodiy targ’ibot bo‘limi;
- ijtimoiy-siyosiy, huquqiy targ’ibot bo‘limi;
- moliya-buxgalteriya bo‘limi.

5. Milliy mafkura ilmiy-targ’ibot markazi istiqlol mafkurasi va milliy g‘oyaning dasturiy asoslari ustida ish olib boradi va keng jamoatchilikning ongiga, qalbiga yetkazishning zamonaviy, ta’siri vosita va shakllarini yaratadi.

VI. Kengash boshqaruvi

1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining oliy organi konferensiyadir. Konferensiya uzog‘i bilan ikki yilda bir marta chaqiriladi. Shuningdek, Respublika Kengashining qarori yoki uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar talabi bilan muddatidan oldin ham chaqirilishi mumkin.

2. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi konferensiyasi:

- Kengashning ish tartibini belgilaydi, rahbar va ishchi organlarini saylaydi;
- Kengash raisini saylaydi;
- Kengashning Faoliyat dasturi va Nizomini tasdiqlaydi, zarur holatda o‘zgartirishlar, qo‘sishimchalar va aniqliklar kiritadi;

3. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi:

Konferensiyalar oralig‘ida Respublika Kengashi yuqori rahbar organ hisoblanadi. Kengash ikki yil muddatga saylanadi.

Kengash:

- konferensiyalar oralig‘ida mamlakat miqyosida olib boriladigan ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yo‘nalishlardagi targ’ibot-tashviqot ishlarini tashkil etadi;
- Respublika Kengashi raisining o‘rinbosarlari, Kengash mas’ul kotibini saylaydi;
- quiyi kengash rahbarlarining hisobotlarini tinglaydi, ular yuzasidan ko‘pchilik ovoz bilan qarorlar qabul qiladi;

— Kengashga a’zo davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlarining, quiyi kengashlarning shu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

— Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazi tavsiyasiga binoan jamoatchi targ‘ibotchilar ro‘yxatini tasdiqlaydi, ularni zarur qo‘llanmalar va tavsiyalar bilan ta’minalash, ishini tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni hal etadi;

— Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazi, uning viloyatlar, shahar, tumanlar bo‘limlarining ishiga bevosita rahbarlik qiladi, moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi;

— Respublika ilmiy, madaniy va ma’rifiy markazlari, olimlar, adiblar, ziyorolar bilan hamkorlikda targ‘ibot -tashviqot ishlarining strategiyasini belgilaydi, uni amalga oshirishning zamonaviy va ta’sirchan usullarini tavsiya etadi;

— yillik, yarim yillik va qisqa muddatga mo‘ljallangan dasturlar rejalarini belgilaydi, tasdiqlaydi va amalga oshirish choralarini ko‘radi;

— ommaviy axborot vositalari bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi, maqsad va vazifalarning, o‘tkazilayotgan tadbirlar, ilg‘or tajribalarning teleko‘rsatuvalar, radioeshittirishlar, gazeta va jurnallar orqali muntazam yoritib borilishiga erishadi;

— Kengash o‘z ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish va boshqa ommaviy nashrlarga ham muassislik qiladi;

— Kengash yig‘ilishi uzog‘i bilan har ikki oyda bir marta o‘tkaziladi.

4. Kengash raisi 2 yil muddatga saylanadi.

Kengash raisi:

— Kengash ishiga raislik qiladi;

— o‘rinbosarlari, kengash a’zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ijro intizomini ta’minalaydi;

— Kengash tarkibidagi hamda respublikadagi boshqa davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

— Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining ishini tashkil etish, faoliyatining yo‘nalishini belgilash, qo‘ylgan vazifalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qiladi.

5. Kengash raisining o‘rinbosarlari 2 yil muddatga saylanadi.

Kengash raisining o‘rinbosarlari Kengashning qarorlari hamda raisning topshiriqlarini bajaradi, vaziyat taqozosiga ko‘ra Kengash raisining vakolatini bajarishi mumkin.

6. Kengash mas’ul kotibi 2 yil muddatga saylanadi. Kengashning mas’ul kotibi bir vaqtning o‘zida Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining rahbari hisoblanadi va:

— Kengash qarorlarini joylarda amalga oshirish va targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini uyushtiruvchi tizim — Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining faoliyatni tashkillashtiradi;

— Markaz bo‘limlarining ishlarini muvofiqlashtiradi;

— davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

— Markazning viloyat, shahar va tuman bo‘limlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

— Ma’naviy, ma’rifiy, tarbiyaviy yo‘nalishlardagi targ‘ibot ishlarining ahvoli, ta’sirchanligi va natijasini Markaz bo‘limlari orqali tahlil etish, Kengashga tavsiyalar tayyorlash ishiga bevosita rahbarlik qiladi;

— Markazning moliyaviy-xo‘jalik masalalari bilan shug‘ullanadi, xo‘jalik hisobi bilan qo‘shimcha mablag‘lar topishni yo‘lga qo‘yadi;

— jamoatchi targ‘ibotchilarni tanlash, Kengash tomonidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayoniga jalb etish, qo‘llanmalar bilan ta’minalash, ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish masalalarini hal etadi.

VII. Kengash a’zolarining huquq va vazifalari

1. Kengashga Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan, nizom va dasturlarda ma’rifiy - ma’naviy tarbiya, targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirishni o‘zlariga asosiy vazifalaridan biri qilib belgilagan davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlarining vakillari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat kengashlari raislari 2 yil muddatga saylanadilar.

2. Kengash a’zolari:

— Kengashning ishchi organlariga saylash va saylanish;

— qabul qilinadigan qarorlar muhokamasida ishtirok etish, takliflar kiritish, tavsiyalar berish huquqiga ega.

3. Kengashning Nizom va Faoliyati dasturi talablarini, qabul qilingan qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshiradilar.

VIII. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat kengashlari

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat kengashlari (bundan buyon — viloyat kengashi) muassis tashkilotlar va jamoatchilik vakillari ishtirokidagi konferensiyalarda ochiq ovoz berish yo‘li bilan tuziladi.

2. Viloyat kengashining raisi viloyat konferensiyasida, rais o‘rbbosari, mas’ul kotibi viloyat kengashida ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

3. Viloyat kengashi tarkibiga Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining viloyat bo‘limi kiradi. Bo‘lim rahbari kengashning mas’ul kotibi hisoblanadi.

4. “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining viloyat bo‘limi kengash qarorlarini joylarda amalga oshirish va targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini uyuştiruvchi tashkiliy guruh bo‘lib, quyidagi to‘rtta yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatadi:

- targ‘ibotchilarni muvofiqlashtirish tashkiliy guruhi;
- ma’naviy - ma’rifiy, huquqiy targ‘ibot guruhi;
- ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy targ‘ibot guruhi;
- moliya - buxgalteriya guruhi.

5. Viloyat kengashi bevosita Respublika Kengashi rahbarligida va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining Faoliyat dasturi va Nizomi asosida faoliyat ko‘rsatadi.

IX. Shahar va tuman kengashlari

1. Shahar va tuman kengashlari (bundan buyon — tuman kengashi) muassis tashkilotlar va jamoatchilik vakillari ishtirokidagi konferensiyalarda ochiq ovoz berish yo‘li bilan tuziladi.

2. Tuman kengashining raisi tuman konferensiyasida, rais o‘rbbosari, mas’ul kotibi tuman kengashida ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

3. Tuman kengashi tarkibiga Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining tuman bo‘limi kiradi. Bo‘lim rahbari kengashning mas’ul kotibi hisoblanadi.

4. “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazining tuman bo‘limi kengash qarorlarini joylarda amalga oshirish va targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini uyuştiradi va uning tarkibida targ‘ibotchilarni muvofiqlashtirish tashkiliy guruhi faoliyat ko‘rsatadi.

5. Tuman kengashi bevosita viloyat kengashi rahbarligida va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining Faoliyat dasturi va Nizomi asosida faoliyat ko‘rsatadi.

X. Kengashning moliyaviy mablag‘lari

1. “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazi hamda Kengash qoshidagi tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga egadir.

2. Jamoatchi targ‘ibotchilarning safar xarajatlari, ma’ruzalar haqi tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, muassasalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida shakllantiriladi.

XI. Kengashning tugatilish tartibi

1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi faoliyati konferensiya qaroriga binoan tugatiladi.

2. Kengash faoliyati sud qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

3. Kengash faoliyati tugatilganda uning mablag‘lari Kengashning asosiy maqsad va vazifalari yo‘lida sarflanadi.

XII. Kengashning qarorgohi


1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining qarorgohi Toshkent shahri, Mavoraunahr ko‘chasi, 6 uyda joylashgan.

3-ILOVA


Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish tizimi



Viloyatlarda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish tizimi



Tumanlarda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish tizimi



(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 242-modda)